



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR FOYDALANISH METODIKASI

**Po'latova Sohiba Abdivaxidovna**  
**Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani**  
**49-umumta'lim maktabi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tarbiya fanini o'qitishda o'qituvchilarning darslarda pedagogik texnologiya, boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish vamantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** texnikaviy, axborotli, audiovizualli faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik.

Maktabda bolalarga yangi pedagogik texnologiyalar asosida saboq berish jarayonida muammoli vaziyatlar yaratib, o'quvchilarning aynan shu yangi mavzu doirasida qanchalik bilimga ega ekanligini tezkor savol - javob metodlaridan, yoki qiziqarli kutilmagan tarqatmalar asosida dars samaradorligini kuzatish, tajribalarda sinalib kelinmoqda .O'qituvchi nafaqat o'quvchiga bilim beradi, balki uning hayotda o'z o'rniga ega bo'lishiga yordam berib, shaxs sifatida jamiyatning faol a'zosiga aylanishiga ko'maklashadi. Shu boisdan birinchi o'qituvchi hamma vaqt o'quvchi xotirasida umrbod qoladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisiga o'quvchini tarbiyalashda xalqimizning boy ma'naviy merosi, qadriyatlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o'qituvchi faoliyatida xalq og'zaki ijodi, jumladan, maqol, topishmoq, tez aytish, rivoyat, afsona, ertaklardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchini nafaqat dars jarayonida balki, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida ham tarbiyalab boradi. Shu bois tarbiyaviy ishlarni zamon talablari darajasida tashkil etishga harakat qilish, ular mazmunini turli-tuman didaktik vositalar bilan boyitib borish bugungi kun sinf rahbarlari oldida turgan dolzarb muammolaridan biridir. Kasblarning eng ulug'i - bu o'qituvchilik kasbidir. Bu borada boshlang'ich sinf o'qituvchini alohida tilga



olmoq darkorki, u ilk bor o'quvchi savodini chiqarib, unga "Ona", "Vatan", "Oila" so'zlarini yozish va o'qishni o'rgatadi, ularning mazmunini anglatadi.

Darsda berilgan tabiatga oid matnlar har doim topshiriq ustida ishlash jarayonida tarbiyaviy jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Ona Vatanni sevish, tabiatni asrash va uning ne'matlarini qadridga yetish tushunchalari shakllantirib har doim bola ongiga hayotiy tajribalar asosida singdirib borish kerakligini har bir pedagog unutmasligi kerak.

Fikrimcha dars davomida o'tkaziladigan metodlar quyidagilarga to'laqonli javob beraolishi kerak:

1. Ushbu metod albatta darsning tashkiliy qismi, mazmun-mohiyatini o'zida mujassam eta olgan bo'lishi;

2. Tanlangan metod bir faoliyat jarayonini yaxlit qamrab olishi ya'ni butun sinf uchun birdek mos bo'lishi va qo'llanilishi;

3. O'quvchilarning yosh xususiyatlariga, qiziqish va imkoniyatlariga mos kelishi;

4. Mavzuning asl mohiyatini yoritshga xizmat qilishi;

5. Ta'lim va tarbiyaning yaxlit, uzviylashtirilgan maqsad va vazifalarini amalga oshirilishiga yo'naltiruvchi;

6. O'quvchilarda kreativlik, izlanuvchanlik kabi sifatlarni yanada rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi;

7. Dars samaradorligiga sezilarli ta'sir eta olish xususiyatini o'zida mujassam eta olgan;

8. Olingan bilimlarni to'laqonli qanoatlantira oluvchi;

9. O'quvchilar jamoasini baravriga baholay olishga yo'naltiruvchi kabilar shular jumlasidandir.

Boshlang'ich sinf darslarini multimedia vositalaridan foydalangan holda tashkil etish orqali o'quvchilarda ushbu fan bo'yicha beriladigan turli yo'nalishdagi ma'lumotlarga, vazifa va topshiriqlarga bo'lgan qiziqishni yanada orttirish, topshiriq sifatida berilgan amaliy ishlarni video va animatsion usul orqali tasavvur qilgan holatda mustaqil bajarishlari uchun qulaylik yaratuvchi manba sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan multimedia vositasi haqida qisqacha ma'lumot:

Multimedia vositalari haqida so'z borar ekan internet sayti manbalarida u haqidaa quyidagicha ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin bo'ladi:





Multimedia (multi - ko'p, media - muhit) - bu kompyuter texnologiyalarining soxasi bo'lib, turli axborot saqlovchi vositalaridagi turli fizik ko'rinishda ifodalangan axborotlarga ishlov beradi.

Multimedia - bu zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalanib, interfaol dasturiy ta'minot ostida boshqariladigan video va audio effektlarning o'zaro bog'liqligi bo'lib, matn, tovush, grafika, foto, videoni birlashtiradi. Bunda ma'lumot turli axborot tashuvchilarida mavjud bo'lishi mumkin (magnit va optik disklar, audio va video tasmalar).

Multimedaning apparat dasturiy vositalari foydalanuvchi o'z ish faoliyatida axborotning matn va grafik shakldan tashqari yana foydali audio va video fayllar shakllaridan foydalanish, hamda o'zlarining animatsiyali rolik va filmlarini yaratishlari mumkin.

Boshlang'ich sinf o'qituvchining mas'uliyatli, ko'p qirrali va murakkab faoliyati zaminida yosh avlodni vatanparvar, odobli, iymon-e'tiqodli qilib tarbiyalash, shuningdek, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog'liq: bolalarni o'qitish, maktabdan va sinfdan tashqari ishlarni tashkil eta bilish, o'tkazish, ota-onalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarni olib borish va sinf jamoasini shakllantirish kabilar. Bularni hammasi o'qituvchidan chuqur bilimlarga ega bo'lishni, o'z sohasini, bolalarni sevishni talab etadi.

Bugungi kunda taraqqiyot sari odimlab borayotgan Respublikamiz yuksalishi yo'lida xalqimizning boy tarixi, madaniyati, urf-odatlar bilan faxrlana oladigan va uni o'quvchi yoshlar o'rtasida targ'ib qila oladigan fidoiy o'qituvchilar zarur bo'ladi. Shubhasiz bunday o'qituvchilar boshlang'ich sinf o'qituvchilaridir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri bizning kelajagimiz bo'lmish yosh avlodni to'g'ri, insonparvarlik ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Boshlang'ich sinflar maktab ta'limining dastlabki bosqichi bo'lib, bolalar o'qituvchi rahbarligida ta'limga 1-qadamni qo'yadilar.

O'quvchilar ilk bor o'quv faoliyatida bilim, ko'nikma va malakani egallaydilar. O'qituvchi sinf bilan yolg'iz ishlaydi va ko'pincha tarbiyachi sifatida ish yuritadi. O'qituvchilarning bolalarga bo'lgan munosabati katta mehribonlik va g'amxo'rlik bilan xarakterlanadi. O'quvchilarning o'qituvchilar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish hamda o'quvchilarning o'sishi va rivojlanishiga qarab ularni qayta tarbiyalash xususiyati ham sinf rahbari uchun



muhim ahamiyatga ega. Maktab Nizomida sinf rahbarining asosiy vazifalari belgilab berilgan. Sinf rahbari barcha o'qituvchilar bilan birgalikda aloqada bo'lib, o'zining sinfi bilan tarbiyaviy ishlarni olib boradi. O'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga qo'yiladigan pedagogik talablar birligiga erishadi. Ota-onalar, kun uzaytirilgan guruh tarbiyachilari, jamoatchilik bilan doimo aloqada bo'lib turadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazilgan darslar o'quvchilarning muhim hayotiy yutuq va muammolarga o'z munosabatlarini bildirishga intilishlarini tarbiyalab, o'z nuqtai nazaridan asoslashga imkoniyat beradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi. Bunday darslarda o'qituvchi o'quvchilarni faoliyatini dars maqsadiga yo'naltiradi bu usullarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, dars jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlari doimiylik ta'minlanishi, o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligidagi faoliyatining doimiy ravishda tashkil etilishini ta'minlaydi. O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rish mobaynida o'quv vositalarini darsning rejadagi mavzusiga qarab tanlashi va asosiy e'tiborni qo'llaydigan metodlari va tanlagan o'quv vositalariga qaratishi lozim. O'z darslarida har bir mavzuga mos yangi usullar va texnik vositalaridan o'z o'rnida va unumli foydalanishi zarur. Bu esa o'quvchilarni mustaqil bilim olishga, berilgan aniq mavzu bo'yicha atroflicha fikrlashga va ijodiy faol

bo'lishga yo'naltiradi. Hozirgi kunda keng qo'llanadigan usullar "Klaster", "Aqliy hujum", "Debat", "U kim Bu nima", "Xotira mashqi", "eslab qol", "Sirli sandiqcha", va boshqa usullardan foydalanib darsni tashkil etsa, dars mazmunli bo'ladi. Dars davomida kelib chiqqan muammolarni innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali oson yechimini topish mumkin. O'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarni darsdagi faoliyatini aniq bir maqsadga yo'naltirib, har bir darsga puxta tayyorgarlik ko'rgan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borishi va o'quvchilarni ko'proq mustaqil fikrlashga, fikrlarini erkin bayon etishga o'rgatib borishi lozim. O'quvchilarni har bir javobini o'z vaqtida rag'batlantirib borsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Dars davomida o'quvchini o'rganilgan mavzu yuzasidan fikr bildirishiga undashi, taklif va mulohazalarini, istedodini namoyish qilishga bo'lgan urinishlarini qo'llab - quvvatlashi, buning uchun sharoit va imkoniyat yaratishga harakat qilishi zarur.





Boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy maqsadi, o'quvchida savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish, ularning dunyoqarashi, axloqi, estetik didi, qobiliyati va e'tiqodini rivojlantirib, ma'lum kasb egasi bo'lishga tayyorlab borishdan iboratdir. Boshlang'ich ta'lim jarayoni o'ta mas'uliyatli, murakkab jarayon hisoblanadi. Shu bois bu jarayonda faoliyat yuritish o'qituvchidan juda katta kuch, matonat, sabr-bardosh, ijodkorlikni talab etadi. Negaki, o'qituvchi ilk bor o'quvchi qo'lga qalam ushatib, unga harfni, o'qishni o'rgatadi, tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini boyitadi hamda ahil sinf jamoasini shakllantirib boradi. Shuningdek, bu vaqtda o'qituvchidan har bir o'quvchiga e'tiborli bo'lish, ularning qiziqish va xarakter xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O. Hasanboyeva .Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Toshkent. 2016.
2. Davlatova.N. Maktabgacha ta'lim metodikasi. 2019. 3. N.Oripova.Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun tarbiyaviy ishlar metodikasi fanida
3. O'. O'tanov. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti fanidan ma'ruzalar matni,Samarqand-2016.
4. Iskandar, O. (2023). The Organization of the Khorazm Soviet Republic. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 794-798.
5. Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. Science and innovation, 2(B4), 481-484.